

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI, FARG‘ONA VILOYATI HOKIMLIGI, QO‘QON SHAHAR
HOKIMLIGI, QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI**



**“O‘ZBEK TILI NUFUZINI MUSTAHKAMLASHNING DOLZARB
MASALALARI” mavzusidagi
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI**



MATERIALLARI

QO‘QON – 2022

Mazkur “O‘ZBEK TILI NUFUZINI MUSTAHKAMLASHNING DOLZARB MASALALARI” mavzuidagi to‘plam O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti Qo‘qon shahar hokimligi hamkorligidagi 2022-yil 19-oktyabrda bo‘lib o‘tgan anjuman materiallaridan tashkil topgan.

Tahrir hay‘ati:

XODJAYEVA D.Sh. – institut rektori, bosh muharrir.
JO‘RAYEV N.S – ilmiy va innovasiyalar bo‘yicha prorektor .
TURG‘INOV A.M. – o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani.
AKRAMOV Sh.T. – o‘zbek tili kafedrası mudiri, dotsent.
HASANOV A.A. – o‘zbek tili kafedrası dotsenti.
YIGITALIYEV U.S. – o‘zbek tili kafedrası dotsenti.
RAXIMOVA M.O. – o‘zbek tili kafedrası katta o‘qituvchisi
JO‘RAYEVA R.A. – o‘zbek tili kafedrası katta o‘qituvchisi
MAHMUDOVA N.T. – o‘zbek tili kafedrası o‘qituvchisi
USMONOVA S.A. – o‘zbek tili kafedrası katta o‘qituvchisi

Nashrga tayyorlovchilar:

NASIROV M.M. – o‘zbek tili kafedrası o‘qituvchisi
RAXIMOV S.A. – o‘zbek tili kafedrası o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Sh.ISKANDAROVA – filologiya fanlari doktori, professor.
I.MADRAXIMOV – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

To‘plam Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy Kengashining oktyabr oyidagi 3-sonli yig‘ilish bayoni bilan nashrga tavsiya etildi.

Eslatma: *To‘plamga kiritilgan maqolalar shakli va mazmuniga mualliflarning shaxsan o‘zlari javobgardirlar.*

11. Qiyoslang: “В современном языкознании под структурой понимается такое сочетание элементов, в котором каждый элемент обусловлен всеми другими”. Структурный синтаксис английского языка, под ред. Проф. Л.И. Иофик, Изд-во ЛГУ, 1972, 3-бет..

SINTAKTIK TAHLIL MUAMMOLARI

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna,
Buxoro davlat universiteti o‘zbek
tilshunosligi kafedrası professorı,
p.f.n.

Annotatsiya: O‘zbek tilshunosligida til va nutq bosqichlariga oid ma’lumotlarni tavsiflash va tasniflashda hali ham birmuncha chalkashliklar mavjud. Kontekstda qo‘llanilgan frazeologik birliklar, aniqrog‘i, tarkibida leksik jihatdan turg‘un birikma hisoblangan butunliklarning qaysi gap bo‘lakgi ekanligini aniqlash muammosi shular jumlasidandir. Mazkur maqolada sintaktik tahlil (jumladagi gap qismlarini ajratish) semantik asosga emas, balki sintaksis talablari va xususiyatlariga asoslanishi kerakligi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *sintaktik omil, semantik omil, gap bo‘laklari tahlili muammosi, frazeologik birliklar tahlili*

Аннотация: В узбекском языкознании до сих пор существует некоторая путаница в описании и классификации сведений о языке и стадиях речи. Одной из них является проблема определения того, какие фразеологизмы употребляются в контексте, а точнее, какая часть целого считается лексически устойчивым сочетанием. В данной статье утверждается, что синтаксический анализ (разделение частей предложения) должен основываться на требованиях и особенностях синтаксиса, а не на семантической основе.

Ключевые слова: *синтаксический фактор, семантический фактор, проблема анализа фрагментов предложений, анализ фразеологизмов*

Annotation: In Uzbek linguistics, there is still some confusion in the description and classification of information about the language and stages of speech. One of them is the problem of determining which phraseological units are used in the context, or rather, which part of the whole is considered a lexically stable combination. This article argues that syntactic analysis (separation of parts of a sentence) should be based on the requirements and features of the syntax, and not on a semantic basis.

Key words: *syntactic factor, semantic factor, problem of analysis of sentence fragments, analysis of phraseological units.*

Til jamiyatning ma’naviy, madaniy, milliy hayotida, hatto har bir kishining shaxsiy turmushida muhim rol o‘ynaydigan beqiyos omil ekanligi bugun hech birimiz uchun sir emas. Zero, tilni kengaytirish – jamiyatni rivojlantirish, tilga

e'tiborli bo'lish – xalq nutq madaniyatini oshirish; tilning sofligini saqlash – kelajak avlodlar ma'naviyatini asrash demakdir.

Til aloqa omili ekanligi aksioma yoki uning rad etib bo'lmaydigan haqiqati. Tilning aloqa omili ekanligi zahirida lingvistik ma'naviylik tushunchasi mujassamki, bu har bir tilda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Jumladan, rus tili ifodalaydigan lingvistik ma'naviylik tushunchasi o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidagi lingvistik ma'naviylik tushunchasi ingliz tiliga mos kelmasligi tabiiy hol. Bu, albatta, har bir tilning o'ziga xos milliy tabiatidan kelib chiqadi. Masalan, o'zbeklarda *oyday go'zal, oy yanglig' yuz, oydek husn* kabilar tarkibida *oy* (luna) ijobiy xususiyat ifodalab go'zallik kontseptual maydonida qadrlansa; ingliz tilida *oy* metaforasi, umuman teskari, ya'ni qarilik, yolg'izlanib qolish alomatlarini ifodalovchi salbiy birlik sanaladi.

Demak, bir tilda bori ikkinchisida yo'q. Masalan, o'zbek tilidagi harakat tarzi kategoriyasi rus tilida yo'q va h.

Tillar o'ziga xoslik kasb etishi barobarida ularning tadqiqi hamisha integratsiyani taqozo etadi. Buning natijasida tilga xos xususiyatlarni ta'riflash, tasniflash va shu orqali tilni bilish imkoniyati yuzaga keladi. Aytmoqchimizki, dunyo miqyosida muayyan tilshunoslikda berilgan ta'riflar, tasniflar boshqa tillar uchun ham asos vazifasini o'taydi [Safarov,2007: 78]. Bunday holat tilshunoslik rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ham yoki muayyan til tadqiqini o'zga o'zanga solib yuborishi ham mumkin. Fikrimizni quyidagi misollar orqali dalillaymiz:

1. Rus tilshunosligida keng tarqalgan fikr[Beloshapkova,1977: 97; Vinogradov,1988: 214]ga ko'ra, sintaksis grammatikaning so'z birikmasi va gap haqidagi ta'limotni o'z ichiga olgan qismi. Sintaksis tilning ikki mustaqil yarusi – so'z birikmasi va gapni o'rganadi, ya'ni sintaksisning asosiy predmeti so'z birikmasi va gap.

Aynan shu tasnifdan o'zbek tilshunosligi ham foydalanadi [Sayfullayeva, 2011: 216].

2. Gap tarkibini bo'laklarga ajratishda, asosan, nemis tilshunosi Karl Bekker tomonidan yozilgan "Organismus der sprache als Eibleitung zu der

gramatik”(1827)dagi tasnifga tayaniladi (ega, kesim, to‘ldirovchi, aniqlovchi). Keyinchalik bu tasnif tarkibiga hol qo‘shildi va h. (Vaholanki, Bekker tasniflagan gap bo‘laklarining sistemasidan hozirgacha ko‘pgina tillarning maktab grammatikasida foydalaniladi.) va h.

Bu kabi tilshunoslik uchun odatiy hol bo‘lgan misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Fikrimizcha, lingvistik tasnif masalasida har bir tilning o‘z milliy tabiatidan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Birgina misol: o‘zbek substantsial tilshunosligi gap bo‘laklari masalasini lisoniy bosqichda, til birligi sifatida e‘tirof etilgan gap lisoniy sintaktik qolipi (LSQ) doirasida hal etdi [Sayfullayeva, 2011: 323]. Sodda gapning eng kichik [WPm] LSQda markaziy bo‘lak kesim ekanligi aniqlangach [Abuzalova, 1994], uning [Pm] qismi, ya‘ni gap kengaytiruvchilari ega va o‘rin, payt hollari ekanligi; LSQning [W] qismi, ya‘ni so‘z kengaytiruvchilari to‘ldiruvchi, aniqlovchi, holning qolgan turlari ekanligi aniqlandi [Akramov,1997; Shokirova, 2009]. Demak, o‘zbek tili nutqiy bosqichida gap bo‘laklari tartibi hind-yevropa, slavyan tillaridagidan keskin farqlandi. Ya‘ni

Gapning markazi –kesim.

Gap kengaytiruvchilari yoki gapning I darajali bo‘laklari–ega, payt va o‘rin holi.

So‘z kengaytiruvchilari yoki gapning II darajali bo‘laklari–to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol (o‘rin va payt holidan tashqari).

O‘zbek substantsial tilshunosligi o‘zidan avval “o‘z-o‘zidan tushunarli hodisa” sifatida qabul qilingan, biroq tilshunoslar har qadamda, har bir hukmda bevosita va bilvosita to‘qnashadigan tasnif masalasiga bir qadar yechim berdi [Madrahimov, 1994]. Shunday bo‘lishiga qaramasdan o‘zbek tilshunosligida til sathlarining lisoniy hamda nutqiy bosqichlariga tegishli ma‘lumotlar tavsifida, tasnifida hamon chalkashliklarga duch kelamiz. Fikrimizni sitaksis sathiga tegishli shunday “muammo”lardan biri frezamalarning sintaktik tahlili, aniqrog‘i, hurmatfrazemalar ishtirok etgan gaplarda gap bo‘laklarini ajratish masalasi asosida dalillashga yana bir bor harakat qilamiz .

Rus tilshunosligida XX asr boshlarida mantiqiy tilshunoslik namoyandalari “grammatika mantiqqa tayanishi kerak”, degan g‘oyani ilgari surdilar va frazemalarning gap bo‘lagi vazifasida kelishida ham shu mantiqqa ergashdilar. Jumladan, V.V.Vinogradov, V.L.Arxaengel’skogo, S.G.Gavrina, V.P.Jukova, A.V.Jukov, V.M.Mokienko, A.I.Molotkov, L.I.Royzenzon, V.N.Teliya ishlarida frazemalarning sintaktik jihatiga semantik yondashuvni kuzatish mumkin [Vinogradov, 1972]. (Shu o‘rinda e’tirof etish zarurki, rus, fransuz tilshunosliklari XX asming oxirgi choraklarida frazemalarning sintaktik jihatiga semantik yondashuvdan voz kechishgan.)

Tilshunosligimizda uzoq yillar frazemalarning semantik jihatdan yaxlitligi (butunligi, ma’no jihatidan bitta so‘zga tengligi) asosida frazema butunligicha bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi [Rahmatullayev, 1966], degan g‘oya ilgari surildiki, bu hamisha tahlil jarayonida ham, sintaksisning boshqa mavzularini yoritishda ham murakkabliklarni yuzaga keltirdi. Jumladan, akademik V.V. Vinogradov ta’limotiga asoslanib, bu qarashni o‘zbek faniga olib kirgan va ommalashtirgan Sh.Rahmatullayev *ishi yurishmadi, aql bitmadi, boshi shishdi, yuragi achishdi* kabi frazemalar egasiz gaplar hosil qilishini ta’kidladi [Rahmatullayev, 1966]. Frazemali gaplar sintaktik tahliliga shu nuqtayi nazardan yondashilganda mantiqiy izchil ilmiy tasnifga qo‘yiladigan asosiy talab – tasnifning bir asosga tayanishi [Klaus, 1959] buziladi. Vaholanki, frazema semantik, ya’ni ma’no jihatdan yaxlit va butun. Shu asosda uni sintaktik butunlik deb talqin etish mantiqning ayniyat qonuni [Xayrullayev, 1990: 82-88]ni hisobga olmaslikdir. (Bu bizga Abdulla Qahhorning “Nutq” hajviy hikoyasidagi “notiq”ning kulgili holatini eslatadi. Yoki bu uydagi kelinni ishxonasida o‘qituvchi deb emas, kelin deb qarash bilan barobar, bizningcha.)

Demak, sintaktik tahlil (gapda gap bo‘laklarini ajratish) semantik asosda emas, balki s i n t a k t i k talab va xususiyatlarga tayanishi lozim. Chunonchi, *Bu xabarni eshitgan Karimning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi; Ayolning fig‘oni falakka chiqdi; O‘g‘ilning boshini ikkita qildik* kabi gaplarni formal tilshunoslik yoki amaldagi maktab «Ona tili», akademik litseyning «Hozirgi o‘zbek tili» darsliklari

me'yorlari bilan sintaktik jihatdan tahlilga tortsak, quyidagi qarama-qarshiliklarga duch kelamiz:

O'zbek tilshunosligida aniqlashtirilgan, mukammallashtirilgan tasniflarga ko'ra, *tarvuzi qo'ltig'idan tushdi; fig'oni falakka chiqdi; boshini ikkita qildik* – frazema, predikativ, gap strukturali fe'l frazemalar. Biroq yuqoridagi gaplarda *Karimning; Ayolning, O'g'ilning* tarkibiy qismlari sintaktik jihatdan qaysi gap bo'lagi vazifasini bajarmoqda? Albatta, aniqlovchi–qaratqich aniqlovchi. (Zero, o'zbek tilida qaratqich kelishikli so'z gapda faqat qaratqich aniqlovchi vazifasida keladi. Va yana qaratqich qaralmishsiz qo'llana olmaydi.)

Xo'sh, u holda *Karimning; Ayolning, O'g'ilning* qaysi aniqlanmishning aniqlovchisi yoki qaysi qaralmishning qaratqichi? An'anaviy tilshunoslik ham, bir qadar uning tasniflariga tayangan maktab, litsey darsliklari ham bu savollarga asosli javob qaytara olmaydi.

Frazema – sof semantik butunlik. Biroq uning «semantik butunligi»ni sintaktik butunlikka ko'chirish mumkin emas, zero, istagan turdagi frazemaning (u tor ma'no ifodalaydimi yoki kengmi [Nurmonov, 2007: 190-191], qat'i nazar) sintaktik tahlilida uning faqat sintaktik belgilari inobatga olinmog'i zarur. Shuning uchun, masalan, *Mushuk tomdan tushdi* yoki *Bola tomga chiqdi* gaplari sintaktik jihatdan ega–o'rin holi–kesim sifatida sintaktik bo'laklarga ajratilgani kabi *Tarvuzi qo'ltig'idan tushdi; Fig'oni falakka chiqdi* gaplari ham shunday bo'laklarga ajratilishi lozim.

Semantik jihatdan frazemalar tarkibidan ajralgan holda qo'llanilmaydigan so'zlar (chunonchi, *abjaq/abjag'ini tortmoq; almisoq/almisoqdan qolgan; hash-pash/hash-pash deguncha; ozmoq/aqldan ozmoq; bino/o'ziga bino qo'ymoq; chog'/dimog'i chog'; jin/jini suymaydi/* v.h.), frazemalar tarkibidagi numerativlar ham (*chimdim/ bir chimdim kulgi; shingil/bir shingil hajviya; og'iz/ikki og'iz gap /* v.h.) gapni sintaktik bo'laklarga ajratish jarayonida alohida-alohida qismlarga ajratilishi zarur. Shuning uchun yutuq chiqdi birikmasi qanday tahlil etilsa (ega - kesim), *abjag'i chiqdi, dong'i ketdi* ham s i n t a k t i k nuqtayi nazardan shunday tahlil etilishi lozim.

Aytilgan fikr nafaqat predikativ, balki nopredikativ frazemalarga ham aloqador. Chunonchi, *yuragi oq, tosh yurak, ko'ngli bo'sh, ipidan ignasigacha, ko'zi to'rt, miyasi bigiz, ichi qora* kabi frazemalar ham *yuragi xasta, tosh ko'prik, qopi bo'sh, uyidan universitetgacha, son qiymati to'rt, egovlangan bigiz, kuylagi qora* kabi erkin birikmalar sintaktik jihatdan qanday tahlil qilinsa, shunday tahlilga tortilishi shart.

Yuqorida aytilganlardan (*Karimning*) *tarvuzi qo'ltig'idan tushdi* bilan (*Karimning*) *mushugi tomdan tushdi* yoki (*Karimning*) *fig'oni falakka chiqdi* bilan (*Karimning*) *bolasi tomga chiqdi* orasida hech qanday farq yo'q degan g'ayriilmiy xulosaga kelmaslik kerak. Bular orasida farq bor, faqat u s i n t a k t i k emas, balki s e m a n t i k farqdir. Semantik farqni sintaktik hodisani baholashda asos qilib olish sintaktik asosni buzishga olib keladi.

Til – nihoyatda seqirra va imkoniyatlari keng hodisa. Bunga frazemalarning sintaktik tahlilida yana bir bor amin bo'lamiz. Yuqoridagi tahlillarimizda sintaktik tahlil jarayonida semantik jihat keyingi o'ringa tushishini isbotlashga harakat qildik. Biroq ba'zi holatlarda sintaktik hodisalar (jumladan, semantik va sintaktik valentliklar[Rasulov, 1991:176-177]) semantika bilan uzviy bog'liq bo'lgan jihatlarga ham duch kelamiz. (Bu mohiyatga qaysi tomondan yondashishimizga bog'liq.) Chunonchi, *tarvuzi qo'ltig'idan tushdi bilan mushugi tomdan tushdi* tarkibidagi *tarvuzi* va *mushugi*, *qo'ltig'idan* va *tomdan* so'zlarining sintaktik xususiyatlarida farqlar mavjud va bu farqlar, jumladan, *mushuk* va *tom* so'zshakllarining ajraluvchanligi, ma'noviy mustaqilligi bilan bog'liq. Shuning uchun bu so'zlar semantik valentligi asosida *qora mushugi, semiz mushugi, o'g'ri mushugi, epchil mushugi, tanbal mushugi...., baland tomdan, pastak tomdan, begona tomdan, tanish tomdan...* kabi birikmalar hosil qilishi mumkin.

Gap kesimi ham o'zining semantik valentligiga xos kengaytiruvchilar bilan kengaytirilishi mumkin. Chunonchi, *Uchqunjonning epchil mushugi baland tomdan yengilgina sakrab, egasining oldiga tushdi*. Bunday mustaqillik, albatta, *Karimning tarvuzi qo'ltig'idan tushdi* gapi tarkibidagi *tarvuzi, qo'ltig'idan*, va hatto *tushdi* so'zlarida yo'q: biz *Karimning tarvuzi qo'ltig'idan tushdi* gapidan

Karimning katta tarvuzi keng qo'ltig'idan tap etib tushdi gapini tuza olmaymiz. Buning sababi esa sintaktik omillar bilan emas, balki semantik omil bilan – *tarvuzi qo'ltig'idan tushdi* hosilasining sematik yaxlitligi, butunligi bilan bog'liqdir. Qo'shma so'zlar tarkibidagi har bir komponent mustaqil valentlikka ega bo'lmagani kabi frazema tarkibidagi so'zlar ham ma'noviy mustaqillikka ega emas va mustaqil valentlikka ega bo'lolmaydi ham. Demak, bu mohiyatga valentlik nuqtayi nazaridan yondashsak, frazemalar mustaqil sintaktik valentlikka ega bo'lolmaydi.

Biroq frazemalarning mustaqil sintaktik valentlikka ega bo'lolmaslik xususiyatini frazemalarning sintaktik tahliliga tatbiq eta olmaymiz. Sababi, ularning gap qurilishi tarkibida gap bo'lagi mavqeini inkor etish frazemalarning gap qurilishli va so'z birikmasi qurilishli turlarga ajralishini yo'qqa chiqaradi, bu holat frazemalarni qo'shma so'zlarga tenglashtirishga olib kelishi mumkin. Bunday xulosa chiqarishga esa til faktlari to'sqinlik qiladi. Shuning uchun frazema sintaktik jihatdan ajralmaydigan tarkibiy qismlardan iborat bo'lsa (chunonchi, *dov bermoq, dosh bermoq*, lekin *g'ashi kelmoq, jini qo'zimoq emas*), bunday hodisalar qo'shma so'zlar sifatida baholanmog'i lozim. Shu bilan frazema va qo'shma so'z orasida yana bir farq aniqlanadi – frazema tarkibidagi bo'laklar sintaktik funksiyasini, sintaktik mustaqilligini saqlaydi, qo'shma so'z tarkibiy qismlari orasida esa sintaktik vazifa bajarish yo'qoladi, gap tarkibida qo'shma so'z barcha tarkibiy qismlari bilan bitta sintaktik vazifani bajaradi (H.Ne'matov). Shuning uchun frazemalarning erkin birikmalar va qo'shma so'zlar bilan aloqadorligini quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin:

omil/ xususiyat	bo'linuvchan	bo'linmas
<i>sintaktik</i>	<i>frazema, erkin birikma</i>	<i>qo'shma so'z</i>
<i>semantik</i>	<i>erkin birikma</i>	<i>frazema, qo'shma so'z</i>

Demak, frazema semantik va sintaktik bo‘linuvchan erkin birikma hamda bo‘linmas qo‘shma so‘z oralig‘ida oraliq uchinchini tashkil etuvchi hodisadir.

Frazemalar gap tarkibida kengaygan birikma sifatida kelganda butun(yaxlit)likda bir gap bo‘lagi mavqeida kela oladigan holatlar ham uchraydi. Shunday holatlarda frazemalar (har qanday kengaygan birikma singari), albatta, bitta gap bo‘lagi mavqeyini egallaydi. Masalan:

kesim: *Jahlning oqibati burgaga achchiq qilib ko‘rpani kuydirish bo‘ldi.*(P.T.)

ega: *... burgaga achchiq qilib ko‘rpani kuydirmoq siz bilan bizdan lozim emas.* (P.T.)

hol: *Agitator hammaga ma‘lum gaplarni aytayotganini o‘zi ham sezib turadi, shoshib yumaloq yostiq qilib o‘tkazadi.* (P.T.)

to‘ldiruvchi: *U o‘z g‘ururi, obro‘sigga birovning oz-moz til tegizishini ko‘tarmas edi.*(O.)

aniqlovchi: *Naymanchada bo‘zchining siqib suvini ichgan necha-necha vofurushu sarroflar o‘tgan.* (As.M.) *Ko‘zi to‘rt kishining qulog‘i eshik tiqillashida yoki telefon jiringlashida bo‘ladi.*

Kengaygan birikmaning ichida kelgan frazema gap bo‘lagi sifatida, odatda, ajratilmaydi. Chunonchi: *... yuqori hokimlar oldida tilining uzun bo‘lganiga to‘la ishongan ellikboshi fuqaroni sira mensimadi.* (O.) gapida yuqori hokimlar oldida tilining uzun bo‘lganiga to‘la ishongan kengaygan sifatdosh birikmasi bitta gap bo‘lagi – aniqlovchi vazifasida kelgan. Bu birikma tarkibida *tili uzun* (bo‘l-) frazemasini ham mavjud. Lekin bu frazema *ishon-* fe‘liga bog‘lanib kelgan va shu fe‘l markazida turgan kengaygan birikma tarkibiga kiradi.

Kengaygan birikma tarkibida esa bu frazema mustaqil gap bo‘lagi mavqeini egallamaydi, chunki kengaygan birikmaning o‘zi gap emas va gap bo‘laklariga ajratilishi mumkin emas–kengaygan birikma – markazi va qurshov so‘zlari bitta gap bo‘lagi bo‘lib keladi va ichida ajratilishi mumkin emas.

Bunda frazema, qo‘shma so‘z, erkin birikma orasidagi farq tamoman yo‘qoladi.

Aytgan fikrlar frazemalarning alohida bir ko‘rinishi sifatida ba‘zan qabul qilinadigan, ba‘zan rad etiladigan maqol, matal, hikmatli so‘zlar, turg‘unlashgan iboralar, tasviriy vositalarga (parafrazalarga) v.b. ham tegishli. Ularning u yoki bu darajada semantik butunligi bu hosilalarning sintaktik bo‘linuvchanligiga monelik qilmasligi kerak. Semantik omil – boshqa, sintaktik omil – boshqa. Semantik tomon va xususiyat semantik omil bilan, sintaktik xususiyat esa sintaktik omil bilan baholanishi lozim. Semantik asosga tayanib sintaktik xususiyatni, sintaktik asosga tayanib semantik xususiyatni «aniqlash» – mantiqiy xato.

Zero, A.A.Potebnya to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “...grammatik mulohazaning umuman mantiqiy mulohazaga o‘xshashligi yo‘q”. Har bir xususiyat o‘z asosidan kelib chiqishi shart. Bu asos semantik farq asosida sintaktik mohiyatni belgilashga yo‘l qo‘ymaydi.

Xulosa shuki, sintaksis sathi tilshunos olimlarimiz tomonidan chuqur o‘rganib chiqilganligiga qaramay unda hali yechimtalab muammolar mavjud.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abuzalova M. O‘zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilishi qolip va uning nutqda voqelanishi: filol.fan. nomz.... diss. – T., 1994.–134 b.

2. Akramov Sh. O‘zbek tilining gap qurilishida to‘ldiruvchi va hol [WP_m] valentligi asosida: filol.fan. nomz.... diss. avtoref. – T.: 1997.–21 b.; Shokirova H. O‘zbek tilida kesimlik kategoriyasi: shaxs aktanti va uning nutqiy voqelanishi: filol.fanlari nomzodi diss....avtoref. – T., 2009.–24 b. va b.

3. Белошапкова В.А. Современный русский язык. – Синтаксис. М.: Высшая школа, 1977.–248 с.; Виноградов В.В. Исследование по русской грамматике. М.: Наука, 1988.–562 с.; Общее языкознание. Под ред. Б.А. Серебренникова. Внутренняя структура языка. М.: Наука, 1970. –604 с. va b.

4. Виноградов В.В. Русский язык (грамматическое учение о слове). – М.: Высшая школа, 1972.– 613 с.: Виноградов В.В. Основные вопросы синтаксиса предложения // Избр. труды. Исследования по русской грамматике.– М., 1975. –275 с. va b.

5. Клаус К. Введение в формальную логику. – М.: Наука, 1959. –С.234.

6. Мадраҳимов И.С. Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва уни таснифлаш асослари. НДА. – Тошкент, 1994.–158 б.

7. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи.–Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б.190-191.

8. Неъматов Х., Йўлдошева Д. Фраземаларнинг синтактик таҳлили ҳақида //Бухоро университети илмий ахборотлари (05-024), 2006, 2-сон. – Б.48-52.

9.Расулов Р. Лексико-семантические группа глаголов состояния и их валентность. – Т.: Фан, 1991.–С.176-177.

10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари: Филол. фан. д-ри. дис. ... автореф. –Тошкент, 1966. – Б.46.

11.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Т.: Университет, 1992.– Б.24-25.

12. Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси.– Ташкент: Фан, 2007.–278 б.

13.Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.–Toshkent, 2011.–614 b.

14. Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантиқ. – Т.: Ўқитувчи, 1990.– Б.82-88.

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘RGANISH VA TARG‘IB ETISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

M. G‘. JAMOLIDDINOV

Qo‘qon DPI, dotsent

O‘zbek tili tarixi taraqqiyoti jarayonida o‘z boshidan murakkab davrni bosib o‘tdi, ayniqsa, Arab istilosi, mo‘g‘ullar bosqini, chor rossiyasi istilosi turkiy tilini rivojiga uning davlat siyosati darajasida maqomga ega bo‘lishiga qarshilik qildi. Bu holat o‘lmas ma’naviy merosimiz bo‘lgan tarixiy, adabiy asarlarni arab, fors, rus tillarida yaratilishiga majbur etdi. Ayniqsa, birinchi renessans davri qomusiy olimlari forobiy, beruniy, ibn sino, ikkinchi renessans davri ijodkorlari ulug‘bek, abdurazzoq samarqandiy, husayn voiz koshifiy boshqa turkiy ijodkorlarni qalamiga mansub asarlarini ham qardosh tillarda ijod etishga siyosat o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Bu ijtimoiy- siyosiy muhit o‘zbek tilini go‘zalligini, jozibasini,ilmiy o‘rganishda turkiy xalqlarga tushuntirish targ‘ib etishdan mahrum etdi. O‘zbek xalqining keng qatlamini savodxon bo‘lishiga ta’sir qildi.

Bugun biz Alisher Navoiyni o‘zbek tili va adabiyotining asoschisi deb yosh avlodga o‘rgatamiz. Biroq, oddiy kitobxon yoki ma’lumotga ega o‘qituvchidan nima uchun Navoiy o‘zbek tilining asoschisi - deb berilgan savolga javobni to‘liq

MUNDARIJA

1. Kirish so‘zi. Xodjayeva D.Sh. - Qo‘qon DPI rektori. ONA TILI SIYOSIY YUKSALISH YO‘LIDA.....	3
2. Madrahimov I. - Qo‘qon DPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. O‘ZBEK MILLIY TILSHUNOSLIGINING ASOSCHISI.....	5
3. Yigitaliyev U. - Qo‘qon DPI dotsenti Umidojonov Sh. - Qo‘qon DPI 3-kurs talabasi MORFOLOGIK VOSITALARNING KOGNITIV TAHLILI (“shaxs” konsepti misolida).....	12
4. Akramov Sh. - Qo‘qon DPI dotsenti, f.f.n.. SINTAKTIK TA‘LIMNI YANGICHA ASPEKTDA O‘RGANILISHI XUSUSIDA.....	18
5. Alimova D. - Qo‘qon shahar hokimining maslahatchisi. O‘ZBEK TILINING IJTIMOY MUNOSABATLARDA TUTGAN O‘RNI.....	25
6. Qobilova Z. - Qo‘qon DPI, filologiya fanlari doktori. AMIRIYNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI.....	29
7. Berdialiyev A. - Xujand DU(Tojikiston R.) f.f.d., professor. QO‘SHMA GAPLAR NAZARIYASIGA DOIR BA‘ZI MASALALAR HAQIDA.....	35
8. Yuldasheva D. - Buxoro DU professori, p.f.n. SINTAKTIK TAHLIL MUAMMOLARI.....	43
9. Jamoliddinov M. – Qo‘qon DPI dotsenti . O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘RGANISH VA TARG‘IB ETISHDA MUAMMO VA YECHIMLAR.....	52
10. Akramova L. - O‘zbekiston tumani, 35-maktab oliy toifali o‘qituvchisi TILIMIZ BOR EKAN – MILLAT BARQAROR	55
11. Xo‘jayeva F. – Qo‘qon sh. 32-IDUM ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi. UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINI MILLIY O‘QUV DASTURI ASOSIDA O‘QITISH:MUAMMO VA YECHIMLAR.....	58
12. Yigitaliyev U. – Qo‘qon DPI f.f.f.d.(Phd), dotsent. Mahsutaliyeva Sh. - QDPI 2-kurs magistranti STILISTIK VOSITALARNING KONSEPTUAL TABIATI.....	64
13. Ganiyeva D. – Andijon DU doktoranti, f.f.n., dotsent. HOZIRGI ZAMON SHAKLLARINING POLIFUNKSIONALLIGI HAQIDA.....	71
14. Toshxujayeva Sh. – Qo‘qon DPI PhD, dotsent. Karimova Sh. – “Al Bukhary University” OTM dotsenti	

SINTAKTIK PARALLELIZM – POETIK SINTAKTIK VOSITA SIFATIDA	77
15. Rahmatullayeva D. - Qo‘qon DPI f.f.f.d. (PhD), dotsent v.b. “ILM-MA‘RIFAT” SEMALI LUG‘AVIY BIRLIKLARNING VALENTLIGI.....	83
16. Abdusamadova F. – Farg‘ona v. Quvasoy sh. 1-sonli IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi. UVAYSIY LIRIKASIDA QO‘LLANGAN METAFORALAR TADQIQI.....	87
17. Alimova M. - Qo‘qon DPI magistranti. DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O‘QISH VA ODOBNOMA FANLAR INTEGRATSIYASI	93
18. Aminova A. – Ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi. KONSEPTNING LINGVOKOGNITIV TAHLILI XUSUSIDA.....	97
19. Meliqo‘ziyev A. - FarDU 2-bosqich magistranti. PARALINGVISTIKA VA UNING DOLZARB MASALALARI.....	101
20. Toirova M. – Namangan v. Yangiqo‘rg‘on t. 21-o‘rta ta‘lim maktab ona va adabiyoti fani o‘qituvchisi. TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALAR. ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITISHNING AMALIY MASALALARI.....	103
21. Xonnazarov E. – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti. ZAMON SHAKLLARI ANNOTATSIYASIDA MORFOTAKTIK QOIDALAR.....	110
22. Esonturdiyeva D. – Termiz DU magistranti. TIL O‘QITISH JARAYONIDA O‘QITISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YUQORI SAMARADORLIKKA ERISHISH.....	115
23. Gulmatova M. - FarDU o‘qituvchisi. DARLIK ILMIY USLUB JANRI SIFATIDA VA UNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	119
24. Tursunova L. - Qo‘qon DPI 2-kurs magistranti. INTONATSIYANING FONETIK BIRLIKLARINI BOG‘LASH VA FONOSINTAGMATIK MUNOSABATLAR HOSIL QILISHDAGI O‘RNI.....	125
25. Ergashova M. - Qo‘qon DPI dotsenti. GLOBAL JARAYONLARDA MADANIY O‘ZGARISHLARNING TILDA AKS ETISHI	128
26. Ergashova M. - Qo‘qon DPI dotsenti. LINGVISTIK MAYDONDA “MAKON” KONSEPTI.....	135
27. Hasanov A. - Qo‘qon DPI dotsenti, f.f.n.	

ABDULLA QAHHORNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI.....	139
28. Ismoilov X. – Andijon DU katta o‘qituvchi, (PhD). O‘lmasov E. - Qo‘qon DPI talaba	
MULOQOT JARAYONINI TO‘G‘RI TASHKIL ETISHGA DOIR.....	141
29. Rahimova M. - Qo‘qon DPI katta o‘qituvchi, (PhD), Muhammadqodirova F. - Qo‘qon DPI talaba	
MILLIY TILIMIZ JONKUYARLARI	143
30. Mamajonova Sh. - Qo‘qon DPI magistrant	
TIL VOSITAI ROBITAI OLAMIYONDIR.....	148
31. Esonaliyev I. - Qo‘qon DPI, talaba	
ONA TILI DARSLARIDA ATOQLI OTLARNI O‘RGANISH.....	152
32. Xudaynazarova G. - Qo‘qon DPI o‘qituvchisi	
SPORT O‘YINLARI ATAMALARI TARIXI.....	154
33. Qo‘shaqova M. – Qo‘qon shahar 40-IDUM oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.	
ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITISHNING AMALIY MASALALARI.....	156
34. Sobirova M. - Qo‘qon DPI talaba.	
ONA TILIM – SHA‘NIM, SHAVKATIM.....	163
35. Tursunova N. Qo‘qon DPI 2-bosqich talabasi	
MATNNING LINGVISTIK TALQINIGA DOIR.	168
36. Normurotov I. - QarDU tayanch doktoranti.	
TINISH BELGILARI TIZIMINING SHAKLLANISH TARIXI.....	171
37. Ostanaqulova M. - Qo‘qon DPI magistrant.	
O‘ZBEK TILIDAGI IBORALARDA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARNING AKS ETISHI.....	175
38. Shukurov O. – QarDU f.f.n., dotsent.	
“O‘ZBEK TILIDAGI YANGI O‘ZLASHMALARNING UMUMIY IZOHLI LUG‘ATLARDA BERILISHI.....	183
39. Qo‘ldasheva D. – FarDU tayanch doktoranti.	
FURQAT G‘AZALLARI FONOPLETIKASI.....	188
40. Sotvoldiyeva S. - Qo‘qon DPI magistrant.	
TIL – DIL KALITI.....	196
41. Shamsiddinova A. - Qo‘qon DPI magistrant,....	
GAZETA SARLAVHALARINING MAZMUNYIY PERSEPSIYASI	200
42. Sotiboldiyev D. - Qo‘qon DPI, talaba	
“MEN O‘ZBEKCHA GAPIRAMAN”.....	204
43. Tursunova M. - Farg‘ona viloyati Quvasoy shahar 21-maktab ona va adabiyot fani o‘qituvchisi.	

ADABIYOT DARSLARIDA INSHO YOZISHNING AHAMIYATI.....	208
44. Xo‘janazarov X. – Quvasoy shahar hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi.	
TIL EKOLOGIYASI YOKI ONA TILIMIZDAGI MUAMMOLAR.....	210
45. Usmonova S. - Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi, Avazmatova Sh. - Qo‘qon DPI talaba	
TOPONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	217
46. Xojiyeva M. – BuxDU o‘qituvchisi, Amanova Sh. – BuxDU talaba	
O‘ZBEK TILI TA’LIMIDA INTERFAOL USULLAR.....	221
47. Jo‘raxo‘yeva X. - Qo‘qon DPI magistrant, ONA TILIDAN TA’LIM MAZMUNINI YANGILASHNING ILMIY ZARURIYATLARI.....	224
48. Yokubbayeva U. – NamDU tayanch doktoranti. DAVR MAZMUNINI AKS ETTIRUVCHI LEKSEMALARNING SEMANTIK TAKOMILI.....	228
49. Yo‘ldosheva D. – NavDPI tayanch doktoranti. DRAMATIK ASARLARDA PLEONAZMNING QO‘LLANISHI (Usmon Azim “Bir qadam yo‘l” dramasi).....	232
50. Jo‘rayeva R. - Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi, (PhD), Umaraliyeva J. - Qo‘qon DPI magistrant. ZAVQIY IJODI TIL XUSUSIYATLARINING O‘RGANILISHI XUSUSIDA.....	236
51. Yusupova Z. – Quvasoy sh. 29-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘ZBEK TILI O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI.....	240
52. Toshpo‘latov A. - Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi (PhD).. ONA TILI O‘QITISHDA PRAGMATIK BAHONI O‘RGANISH.....	246
53. Jumayeva K. - QarDU tayanch doktoranti. “DEVONI MIRZO” ASARIDA QO‘LLANGAN DIALEKTIZMLAR TALQINI	251
54. Zakirova D. - Qo‘qon DPI o‘qituvchisi. O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA QARG‘ISHLARNING LEKSIK XUSUSIYATLARI.....	257
55. Karimova F. – O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi (PhD). IJTIMOIY MAVQE VA IJTIMOIY ROL TUSHUINCHALARI TALQINI.....	261

56. Qo‘ziyev U. – NamDU dotsenti, (PhD). O‘ZGA TIL QOLIPLARI BILAN BOG‘LIQ O‘ZLASHMA QATLAM.....	267
57. Ro‘ziyeva M. – BuxDU magistranti “LISON-TAFAKKUR-NUTQ MUNOSABATI” MAVZUSI – OLAMNI LISONIY MODELLASHTIRISH VOSITASI.....	272
58. Turdaliyeva D. - Qo‘qon DPI doktoranti (PhD). MAQOL VA MATALLAR TIPOLOGIYASINING KOGNITIV-FUNKSIONAL JIHATLARI.....	279
59. Usmonova S. - Qo‘qon DPI, katta o‘qituvchi. TOPONIM – LISONIY BELGI SIFATIDA	281
60. Xamidov M. –TerDU o‘qituvchisi, erkin tadqiqotchi. O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI TARKIBIDAGI “OT” VA “IT” KONSEPTLARINING SEMANTIK TADQIQI.....	286
61. Murodova G. Dang‘ara tumani 23-IDUM o‘qituvchisi. MAKTAB TA‘LIMI JARAYONIDA EKOLOGIK TARBIYA BERISH.....	292
62. Mo‘ydinova G. - Bag‘dod tumani 28-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi . UMUMTA‘LIM MAKTBLARINING ONA TILI DARSLARIDA QO‘SHMA GAPLARNI O‘TISH USLUBIYATI.....	295
63. Xo‘jamberdiyeva G. – Qo‘qon DPI 2-kurs magistranti. SAIDA ZUNNUNOVA SHERLARIDA SINONIMLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	298
64. M.Nasirov. - Qo‘qon DPI, o‘qituvchi. BADIY MATNADAGI EPITETLARNING PRAGMALINGVISTIK TAHLILI.....	304
65. Sh.Ergashev. – Qo‘qon DPI 2-bosqich magistranti. FRAZEMALAR VA HIKMATLAR VOSITASIDA HURMAT MA‘NOSINING IFODALANISHI.....	306
66. Badalbayeva M. Y. - O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi Tillar kafedrasida boshlig‘i. Abdurahimov S. A. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi 5-kurs kursanti. TILIMIZ MILLAT RAVNAQI UCHUN XIZMAT QILISHI SHART.....	311
67. Mahmudova N.T. - Qo‘qon DPI o‘qituvchisi, (PhD) Meliqo‘ziyeva M. - Qo‘qon DPI, talaba TELEKOMMUNIKASIYA SOHASI TERMINOLOGIK TIZIMI XUSUSIDA	315